

EFFECTIVE METHODS OF CHILD SPEECH GROWTH**Sodikova Gulbahor Gofurjon qizi**

Fergana State University Primary Education

Lecturer of the Department of Methodology

Turdaliyeva Mayramkhon Hamidullo qizi

Fergana State University

A student of primary education and sports education

Annotation: The article describes the need to pay attention to the pronunciation of sounds in the development of children's speech, the role of fiction in speech development and ways to develop speech using an interactive method.

Keywords: Speech, speech development, fiction, pronunciation, SYNQUEIN method.

BOLA NUTQINI O'STIRISHNING SAMARALI USULLARI**Sodiqova Gulbahor G'ofurjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim

uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Turdaliyeva Mayramxon Xamidullo qizi

Farg'ona davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bolalar nutqini o'stirishda birinchi o'rinda tovushlar talaffuziga e'tibor berish kerakligi, nutq o'stirishda badiiy adabiyotlar o'rni va interfaol metoddan foydalanib nutq o'stirish yo'llari maqolada bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutq o'stirish, badiiy adabiyot, tez aytish, SINKVEYN metodi.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim -tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarni har tomonlama barkamol bo'lib ulg'ayishlari uchun barcha sharoitlar yaratilyapti. Fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayot, tibbiyot sohasi barcha barchasida bo'layotgan ishlarning hammasi yosh avlod va uning kelajagi uchun qilinmoqda.

Shu asnosida, mamlakatimizda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratildi. Yangidan yangi qonun va qarorlar qabul qilindi. Yoshlar zimmasidan majburiy mehnat olib tashlandi, oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatlari yanada kengaytirildi. Nafaqat oliy ta'limda, balki boshlang'ich ta'limda ham tezkor o'zgarishlar yuzaga keldi va alohida e'tibor qaratildi. Buning natijasi sifatida 2017-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risidagi farmonga imzo chekdi.

Maktabgacha ta'lim o'z o'rnida boshlang'ich ta'limga yo'naltirishning bosh nuqtasi hisoblanadi. Maqolamizning maqsadiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, bolalarda nutq o'stirishning samarali usullari. Nutq o'zi nima?

Nutq-kishi faoliyatining turi bo'lib, uni yuzaga chiqarishda til vositalaridan foydalaniladi, ya'ni so'z, so'z birikmalari, gaplar. Ular orqali kishi o'z ish faoliyati, qilayotgan xatti-harakati, o'y kechinmalari, xohish- istaklari haqida atrofdagilarga axborot beradi.

Yaxshi shakllangan nutq jarayoni esa kishi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi uchun esa ta'limni sifatli olish imkonini beradi. Bunday sifatli nutqni rivojlantiruvchi sifatida o'qituvchi birinchi o'rindagi vazifani bajaradi. Bola nutqi, albatta, oilada shakllanib boradi. Bog'cha va maktabda esa rivojlantiriladi.

Bola nutqini o'stirishda avvalo to'g'ri talaffuzdan boshlamoq zarur. Uning tovushlarni talaffuz qilishiga alohida e'tibor berish kerak. Ba'zi bolalar ayrim tovushlarni aytgani qiynaladi. Masalan, "Shsh"

tovushining o'rniga "Ss", "Rr" tovushi o'rniga "Yy yoki Ll" tovushlarini talaffuz qilishgan holatlari uchraydi. Bunday hollarda o'qituvchi o'quvchi bilan ko'proq ishlashi, individual qo'shimcha darslar tashkillab shug'ullanishi, talaffuzi qiyin tovushga oid so'zlar, so'z birikmalari aytirishi kerak. Ana o'sha tovush qatnashgan rasmi ko'rgazmalarni ko'rsatish va ular asosida savollar berish hamda javob berishga undash yaxshi samara beradi. Mashq: "Shsh" tovushi talaffuzini chiqarish.

-osh, tosh, mosh, qosh so'z oxirida kelganda kuchli aytish. Bola aniq aytishga harakat qiladi;

-pashsha qo'sh undosh tarzda talaffuz qildirish.

Tez atishlar aytirish eng samarali usullardan hisoblanadi. O'qituvchi bu o'rinda so'zning to'g'ri, aniq va tez talaffuziga alohida e'tibor beradi. O'quvchi ham bor diqqatini to'g'ri talaffuz qilishga qaratadi.

Mashq: 1. Bir tup tut tagida bir tup turp. 2. G'ani g'ildirakni g'izzillatdi. 3. Qishda kishmish pishmash, Kishmish pishsa qishmash.

Bolaning to'g'ri talaffuzini shakllantirib olingandan so'ng, fikr-mulohazaga boy, chiroyli, tinglovchini zeriktirmaydigan, adabiy tildagi nutqni o'rgatiladi. O'quvchi nutqini o'stirishda bir nechta shartlar bo'lib, bularga rioya qilgan holda o'stirish ijobiy natija beradi.

1. Nutqni yuzaga chiqarish uchun avvalo uni so'zlaydigan vaziyat bo'lishi kerak, ya'ni bola qaysi o'rinlarda so'zlashi va qanday so'zlashi, fikrlarini og'zaki va yozma tarzda bayon qila olishi hisoblanadi.
2. Har qanday nutqni o'z materiali asosida so'zlash, lekin material kerakli, ma'noli va tinglovchi diqqatini tortadigan bo'lishi kerak.
3. Tinglovchi uchun tushunarli, sodda so'zlar va gaplardan foydalangan holda so'zlash kerak.

Yuqoridagi shartlarga asoslanib nutq o'stirishda bizga badiiy adabiyotlar katta yordam beradi. Chunki bola nutqini adabiy til me'yorlariga asoslangan, madaniy takomillashgan materiallar bilan boyitish kerak. O'quvchilarni badiiy adabiyotlarga qiziqtirish ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali boshlanadi. Ularni o'qish asnosida bola fikrlash qobiliyati, so'z boyligi ortib boradi. O'qigan ertak va hikoyalari ustida suhbatlar olib borish, savollar berib javob olish bolaning erkin fikrlashini hamda shu fikrni bizga nutq orqali yetkazib bera olishiga imkoniyat yaratadi. Bolaning nutqini o'stirishda interfaol metodlar ham katta rol o'ynaydi. Interfaol metodlar o'qitishning barcha jarayonida bola diqqatini tortadi va an'anaviylikdan chetlashgan holda noan'anaviy dars jarayonini yuzaga chiqaradi. Bolani har tomonlama o'ylashga, fikr yuritishga undaydi, fikrlarini o'z o'rnida tezkor tarzda va mantiqiy tomonlama o'ylatadi. SINKVEYN metodi. SINKVEYN fransuzcha so'z bo'lib, "5 qator" degan ma'noni anglatadi. Bu metod orqali so'zlarni qisqa, aniq ifodalash ko'nikmasi shakllanadi. O'zining 5 qator tartib qoidasi bor:

1. Mavzuni bitta so'z bilan ifodalash.
2. Mavzuga mos ikkita sifat yozish.
3. Mavzu doirasidagi xatti-harakatni ifodalovchi uchta fe'l yozish.
4. Mavzuga oid fikrni to'rtta so'z orqali bitta gap holida ifodalash.
5. Mavzu ma'nosiga yaqin bo'lgan bitta so'z yozish.

Mashq:

S I N K V E Y N

1. Ustoz.
2. Dono, mehribon.
3. O'qitadi, yozdiradi, tarbiyalaydi.
4. Ustoz otadek ulug' zot.
5. Murabbiy.

Bu metoddan o'qish, ona tili, tarbiya darslarimizda ko'proq foydalanishimiz mumkin. Masalan, o'qish darsida o'tkan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llashimiz mumkin. Bunda SINKVEYNNI har bir o'uvchi o'z daftarida mustaqil bajaradi. Mavzuni umumiy tarzda o'qituvchi topib berishi yoki mavzu ichidan o'quvchilarning o'zlari topishi mumkin. Bu orqali bolada mavzuga diqqat ortadi, undagi sifat va harakatlarni qidiradi, gap tuzish uchun mustaqil fikrlaydi va o'z xulosalarini chiqaradi, ma'no jihatdan yaqin so'z toppish uchun esa lug'at boyligiga murojaat qiladi. Barcha o'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lganlaridan so'ng ularni o'qib eshittirishadi. Hamma o'quvchida har xillik bor, albatta. Bola ularni eshitadi va o'ziga yangi materiallarni to'playdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safo Matjonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev". Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "Nosir" nashriyoti 2009.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. – 279b